



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JIZZAX VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**JIZZAX VILOYAT SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2021- YIL YANVAR-OKTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6367,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 115,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,9 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 18,6 % ga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 22,3 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 0,5 % o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 95,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



Tumanlar miqiyosida, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. soʻmda


Tumanlar nomi	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	FHI, %
Gʻallaorol tumani	14 873,2	19 265,5	75,9
Forish tumani	4 704,1	5 517,5	68,7
Sharof Rashidov tumani	29 796,9	20 628,3	37,9
Zomin tumani	21 870,1	14 132,2	44,9
Jizzax shahri	13 594,7	22 196,1	95,6
Zafarobod tumani	6 940,2	10 870,4	91,8
Baxmal tumani	1 594,6	2 155,9	79,2

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - oktabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5918,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,9 % ini tashkil etdi.

2020-yil yanvar-oktabr


91,1 %

2021-yil yanvar-oktabr

92,9 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – 3,8 %), o'rtta-yuqori texnologiyali – 15,8 % (4,4 %), o'rtta-quyi texnologiyali – 25,3 % (21,6 %) va quyi texnologiyalisi – 51,8 % (61,4 %)ni tashkil etdi.

■ 2020- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 16,1 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 92,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,7 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,6 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 124,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,7 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,5 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 127,3 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Kalava ip



Yumshoq bug'doy va spelta uni




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- oktabr	2021- yil yanvar- oktabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	20 645,0	37 651,0	17 006
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	54 810,0	52 660,1	-2 149,9
Paxta chigiti, t.	33 777,0	58 048,0	24 271
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	6 420,3	3 646,0	-2 774,3
Paxta linti, t.	1 717,0	3 434,3	1 717,5
Kalava ip, t.	16 714,0	31 412,8	14 698,8

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 2,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 76,6 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,7 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 90,9 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 105,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 31,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1201,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 914,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 205,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 71,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 18,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 28,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1743,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 116,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 %, fizik hajm indeksi 115,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 328,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 166,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 124,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 72,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni, fizik hajm indeksi 92,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 295,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 23,6 % ga pasaygan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 127,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 211,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 277,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ini) tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 22,3 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	197 731,1	215 360,1	17 629,0
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	5,8	12,8	7,0
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	47 984,9	62 240,1	14 255,2

Yanvar - oktabr

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 76,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	27 336,9	60 049,4	32 712,5
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	17 988,6	16 092,4	-1 896,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 20,4 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 33,5 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2733,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020-yil
yanvar-oktabr

30,4%

2021-yil
yanvar-oktabr

25,7%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020-yil
yanvar-oktabr

69,6%

2021-yil
yanvar-oktabr




74,3%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 25,7 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 30,4 %)ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 28,0 % ni va Zarbdor tumani 11,8 % ni, Do'stlik tumani 13,9 % ni hamda Paxtakor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahar (127,7 %), Zafarobod tumanida (130,2 %), Paxtakor tumanida (111,4 %) hamda Zarbdor tumanida(121,8 %), qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 28,9 % shuningdek, G'allaorol tumani 19,2 %, Paxtakor tumani 7,1 % ni, hamda Forish tumani 7,0 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 29,2 % shuningdek, G'allaorol tumani 23,7 %, Forish tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

1264,2 mlrd. so'm


2019- yil yanvar- oktabr

1402,8 mlrd. so'm


2020- yil yanvar- oktabr

2031,0 mlrd. so'm

2021- yil yanvar- oktabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 28,0 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 13,9 % ni, Zarbdor tumani esa 11,8 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 32,5 % ni, shuningdek, Zafarobod tumani 15,5 % ni, G'allaorol tumani esa 10,8 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyati

2019- yil

3 882,0 mlrd. so'm

2020- yil

4 496,4 mlrd. so'm

2021- yil

6 763,5 mlrd. so'm



2019- yil

104,7 %

2020- yil

104,6 %

2021- yil

115,7 %

Jizzax viloyati

115,7

6367,5

Jizzax shahar

103,8

2069,7

Arnasoy

107,0

205,0

Baxmal

111,0

81,1

G'allaorol

119,0

690,8

Sharof Rashidov

109,0

292,6

Do'stlik

108,1

663,1

Zomin

102,3

266,1

Zarbdor

99,5

275,8

Zafarobod

137,3

988,4

Mirzacho'l

97,6

132,4

Paxtakor

106,5

373,5

Forish

112,6

283,1

Yangiobod

57,7


45,9

FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (11 359,1 ming so'm), Zafarobod (19 415,0 so'm) tumanida hamda Do'stlik (9 902,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 475,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 921,4 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 4 332,8 ming so'mni, Arnasoy tumanida – 3 621,9 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 2 980,7 ming so'mni tashkil etdi.

Jizzax viloyati



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3833 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1167 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 30,4 % i) Jizzax shahriga, 742 tasi (19,4 %) Sharof Rashidov tumaniga, 368 tasi (9,6 %) G'allaorol tumaniga , 289 tasi (7,5 %) Zomin tumaniga va 188 tasi (4,9 %) Forish tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

